

RESPUBLIKAMIZDA TRANSPORT XIZMATI KO'RSATISH SOHASIDAGI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI HUQUQIY ASOSLARI

Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot uneversiteti

"Biznes boshqaruvi" kafedrasи

indiramuxtorova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatining huquqiy asoslari tahlil etilgan. Jumladan, yo'lovchi tashish faoliyati bo'yicha amal qilinadigan qonun va qarorlar, litsenziyalash talablari, xavfsizlik choralarining tartibga solinishi yoritilgan. Shuningdek, turizm transporti xizmatlarini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda davlat dasturlari asosida amalgalashirilayotgan islohotlar bayon etilgan. Transport-logistika tizimini takomillashtirish, sarmoya jalb qilish va sohani raqamlashtirish yo'nalichlari maqolaning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Transport xizmati, tadbirkorlik, huquqiy asoslar, litsenziya, yo'lovchi tashish, turizm transporti, normativ hujjatlar, xavfsizlik choralar, raqamlashtirish, logistika tizimi.

Kirish. Respublikamizda transport xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u nafaqat aholiga qulay harakatlanish imkonini yaratadi, balki biznesning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu soha tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli bo'lib, davlat tomonidan huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. Transport xizmatlarini tartibga solish jarayonida tadbirkorlarning huquq va majburiyatlari, litsenziyalash talablari, soliqqa tortish tizimi va xavfsizlik choralar asosiy o'rin tutadi. Sohani rivoji maqsadi kun sayin yangi qaror va farmonlar imzolaniylmoqda, yangidan-yangi maqsadlar qo'yilmoqda. Mamlakatimiz Rahbari tomonidan qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da ham transport sohasiga alohida maqsadlar belgilangan.

Jumladan, strategiyaning 36-maqsadi, "barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish⁵"ga qaratilgan bo'lib, u quydagilarni o'z ichiga oladi:

Toshkent shahri va hududlarda jamoat transporti tizimini takomillashtirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish;

Shaharlararo va shahar atrofi temir yo'l qatnovlari jozibadorligini oshirish;

Transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish;

Transport sohasida tashqi savdo uchun "yashil koridorlar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga yetkazish belgilangan.

Bundan tashqari, strategiyaning 35-maqsadi "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyoohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda

⁵ https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.” ni nazarda tutgan va bu dissertatsiya ishimizning dolzarbligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasida yo'lovchi tashish faoliyati "Avtomobil transporti to'g'risida"gi qonun, "O'zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo'lovchilar va bagaj tashish qoidalari hamda avtobuslarda yo'lovchilar tashish xavfsizligini ta'minlashga doir talablarni tasdiqlash" haqidagi qaror, "Avtomobil transportida yo'lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlar bo'yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida" gi kabi qarorlar mavjud. Yo'lovchi tashishga aloqador qonun va qarorlarni bir jadvalga birlashtirsak quyidagi ko'rinishdagi jadvalga ega bo'lamiz. (1-jadval)

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida yo'lovchi tashish faoliyatiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar⁶

Toifa	Hujjat nomi	Qabul qilingan sana
Qonunlar	"Avtomobil transporti to'g'risida"gi qonun	29.08.1997
Vazirlar Mahkamasining qarorlari	482-son qarori: "Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qoidalari"	04.11.2003
	738-son qarori: "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish yo'nalishlarini ochiq tenderlar orqali tashuvchilarga biriktirish bo'yicha elektron axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"	06.12.2021
	45-son qarori: "Avtomobil transportida yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashuvchilar reytingini hisoblash va yuritish tartibini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"	22.01.2024
	3323-son qarori: "Yo'lovchi avtovokzallari va yo'lovchi avtostansiyalarining faoliyat yuritish tartibi to'g'risidagi nizom"	06.10.2021
	948-son qarori: "Umumiyl foydalilaniladigan transportda yo'lovchi tashish uchun yo'lkira haqini amalgalashirishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"	25.11.2019
	425-son qarori: "Ichki qatnovlarda harakatlanuvchi poyezdlarda yo'lovchi tashish xizmatlari ko'rsatishdan ko'rigan zararlarni qoplash tartibi to'g'risida"	16.07.2024
	2931-1-sun qarori: "Avtobus yo'nalishlari va shahar yo'lovchi tashish transportining nollik masofalarini o'lchash tartibi to'g'risidagi nizomning 3-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"	18.09.2024
Favqulodda vaziyatlar bo'yicha hujjatlar	42-sun qarori: "Yo'lovchi avtovoztransportida favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda harakatlar tartibi to'g'risida"	23.01.2018

⁶ Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ushbu jadvalda O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchi tashish bilan bog‘liq asosiy qonunlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa muhim me’yoriy-huquqiy hujjatlar ro‘yxati keltirilgan. Ushbu hujjatlar yo‘lovchi tashish faoliyatini tartibga solish, tashuvchilar va yo‘lovchilarning huquq va majburiyatlarini belgilash, shuningdek, yo‘lovchi tashish sohasida xavfsizlik choralarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan. Shuningdek, hujjatlarda yo‘lovchi tashish faoliyatini litsenziyalash, tarif siyosati, avtovokzal va avtostansiyalar faoliyatini tashkil etish, yo‘lovchi tashish xizmatlarini raqamlashtirish hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda amalga oshiriladigan choralar belgilab berilgan. Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va ularga amal qilish transport kompaniyalari, haydovchilar hamda yo‘lovchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Endi esa sayyoqlik tranporti rivoji uchun qabul qilingan qonun xujjalarni o’rgansak. Quyida O‘zbekistonda sayyoqlik transportni rivojlantirish bo‘yicha hukumat tomonidan rejalashtirilgan islohotlar aks ettirilgan. Birgina “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy sayyoqlar sonini yanada oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-135-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida ko‘plab sohani rivojlantiruvchi islohotlar rejalashtirilgan.

2023-yil 1-maydan boshlab yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga rioya qilgan holda, Qamchiq dovoni orqali yo‘lovchilarni tashishda foydalaniladigan va haydovchidan tashqari o‘n to‘rttagacha o‘rindiqqa ega bo‘lgan M2 toifadagi transport vositalariga va Jizzax viloyatidagi dovonlar hamda Bo‘stonliq tumanining tog‘li hududlarida tegishli toifadagi yo‘llar orqali turistik avtobus va mikroavtobuslarga muntazam qatnovlarni amalga oshirishga ruxsat berilishini ta’mindlandi.

2023-yil Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida ajratilayotgan mablag‘lar hisobidan yo‘lovchilarni tashishda foydalaniladigan va haydovchidan tashqari sakkiz va undan ortiq o‘rindiqqa ega bo‘lgan transport vositalarini xarid qilish uchun 300 million so‘mgacha miqdordagi loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishini ta’minlash va turizm sohasining subyektlariga aylanma mablag‘lar va investitsiyani ko‘paytirish uchun qo‘srimcha 300 milliard so‘mlik kredit liniyalarini ochishni ta’minlash ko‘zda tutildi.

Sohni rivojiga ta’sir o’tqazishi kutilayotgan navbatdagi qarorni o’rganadigan bo‘lsak, davlatimiz tomonidan sohani rivoji uchun kengko’lamli ishlar qilinayotganligiga amin bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldaggi PF-102-sonli Farmoni turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini oshirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlarni belgilaydi. Quyidagi jadvalda farmonning asosiy mazmuni bilan tanishamiz (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini oshirish bo'yicha PF-102-sون Farmonining asosiy yo'nalishlari⁷

Yo'nalish	Chora-tadbirlar	Natijalar
Turizm infratuzilmasini rivojlantirish	<ul style="list-style-type: none"> - Hududlarda yangi turistik obyektlar barpo etish. - Ichki turizm imkoniyatlarini kengaytirish. - Xalqaro reklama va marketing strategiyalarini ishlab chiqish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Sayyoqlik xizmatlari sifati oshadi. - Yangi turistik yo'nalishlar tashkil etiladi. - O'zbekiston brendi xalqaro miqyosda targ'ib qilinadi.
Transport-logistika tizimini takomillashtirish	<ul style="list-style-type: none"> - Turistik yo'nalishlar bo'yicha yangi transport yo'nalishlari ochiladi. - Xalqaro va ichki avia hamda temir yo'l qatnovlari kengaytiriladi. - Ekologik toza transport vositalari joriy etiladi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Sayyoohlarning harakatlanish qulayligi oshadi. - Transport infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi. - Turizm hududlariga yo'lovchi tashish xizmatlari yaxshilanadi.
Turoperatorlar uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash	<ul style="list-style-type: none"> - 50 million AQSh dollarini miqdorida kredit liniyasi ajratish. - Kredit muddati 10 yil, 2 yillik imtiyozli davr bilan beriladi. - 14% yillik foiz stavkasi bilan milliy valyutada ajratiladi. - Turoperatorlar uchun davlat tomonidan subsidiya va soliq imtiyozlari beriladi. 	<ul style="list-style-type: none"> - Turoperatorlar moliyaviy jihatdan mustahkamlanadi. - Sayyoqlik xizmatlari takomillashadi. - Ichki va tashqi turizm rivojlanadi.
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish	<ul style="list-style-type: none"> - Xorijiy va mahalliy investorlarga imtiyozlar berish. - Turistik loyihalari uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish. - Davlat grantlari orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Xorijiy investorlar uchun qulay biznes muhit yaratiladi. - O'zbekistonning turistik jozibadorligi ortadi. - Yangi turistik obyektlar barpo etiladi.
Turizm sohasida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> - Turistik marshrutlar sonini oshirish. - Mehmonxona xo'jaligini modernizatsiya qilish. - Turizm sohasi xodimlarini o'qitish dasturlarini joriy etish. 	<ul style="list-style-type: none"> - Mehmonxona xizmatlari sifati oshadi. - Sayyohlarga xizmat ko'rsatish tizimi yaxshilanadi. - Turizm sohasida malakali mutaxassislar yetishtiriladi.

Yuqoridagi jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldaggi PF-102-sонли Farmoni asosida turizm va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va kutilayotgan natijalarni yoritadi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar mamlakatning xalqaro maydondagi sayyoqlik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Yangi turistik obyektlarning qurilishi, marketing strategiyalarining takomillashtirilishi va ichki turizm imkoniyatlarining kengayishi sayyoqlik xizmatlari sifatini oshirishga olib keladi.

⁷ Nazariy o'rGANishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Transport-logistika infratuzilmasining yaxshilanishi sayyohlarga qulay harakatlanish imkoniyatlarini yaratadi. Xalqaro va mahalliy transport yo‘nalishlarining kengaytirilishi, ekologik toza transport turlarining joriy etilishi O‘zbekistonning transport tizimini modernizatsiya qiladi va sayyohlar uchun yanada qulay sharoitlar yaratadi. Turoperatorlar uchun moliyaviy yordam va kredit liniyalarining ajratilishi turizm sohasida faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu imtiyozlar turizm xizmatlari sifati va hajmini oshirishga, yangi mehmonxonalar va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tashkil etishga yordam beradi. Xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali turizm va transport sohalarining mustahkam moliyaviy asosga ega bo‘lishi ta’minlanadi. Investitsiyalar jalg etilishi natijasida zamонавиy turistik obyektlar, mehmonxonalar, logistika markazlari va transport infratuzilmasi barpo etiladi. "Yo‘l xaritasi" ishlab chiqilishi O‘zbekistonda turizmni tizimli rivojlantirishga yordam beradi. Marshrutlarni kengaytirish, mehmonxonalar va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda turizm sohasi xodimlarini tayyorlash turizmning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xulosa.

O‘zbekiston Respublikasida transport xizmatlarini ko‘rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati mamlakat infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning huquqiy asoslarini takomillashtirish soha barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Maqolada qayd etilganidek, transport va turizm sohalarida qonun hujjatlari, davlat qarorlari va Prezident farmonlari orqali muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Yo‘lovchi tashish faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarning mavjudligi, litsenziyalash tartibi, xavfsizlik choralari va elektron tizimlarning joriy etilishi tadbirkorlar uchun aniq yo‘nalishlar yaratmoqda. Ayniqsa, turizm transportini rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan davlat dasturlari sohaning innovatsion va iqtisodiy salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Kelgusida transport-logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi, sarmoya jalg qilish va xalqaro standartlarga mos raqamlashtirish choralari orqali sohaning raqobatbardoshligi va xizmatlar sifati yanada oshishi kutilmoqda.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 482-sonli qarori. “Avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagajni tashish qoidalari to‘g‘risida”, 2003-yil 4-noyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–135-sonli qarori. “Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–102-sonli Farmoni. “Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xorijiy turistlar oqimini oshirish to‘g‘risida”, 2024-yil 18-iyul.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 738-sон qarori. “Avtotransportda yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarini ochiq tenderlar orqali taqsimlash tizimi haqida”, 2021-yil 6-dekabr.
7. Davlat statistika qo‘mitasi. Transport va aloqa xizmatlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami, 2020–2024-yillar.
8. Abduraxmonov Q.X., Axmedova U.R. “Transport tizimi va logistika asoslari”. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
9. Jalilov B.X. “Transport infratuzilmasini huquqiy jihatdan tartibga solish masalalari” // Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, 2022-yil, №3.
10. World Bank. *Logistics Performance Index (LPI) 2023 Report.* <https://lpi.worldbank.org>